Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · “Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24319688

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

QISHLOQ XO’JALIGINI RO’YXATGA OLISH ORQALI AGRAR SOHA SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

UTANOV BUNYOD KUVANDIKOVICH
TDIU, “Iqtisodiy statistika” kafedrasi mudiri, i.f.f.d., professor

Agrar soha faoliyani samaradorligini statsitik baholashda shaffof ma’lumotlarni shakllantirish muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Bugungi kunda mazkur sohaning asosiy ma’lumotlar manbai sifatida O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari hisoblanadi. Bundan tashqari O’zbeksiton Respublikasi qishloq xo’jaligi, O’zbeksiton Respublikasi fermerlar Kengashi ham shular jumlasidandir. Lekin bu ma’lumotlarning shaffofligi, aniqligi haqiqatdan talab darajasida ekanligi yoki yo’qligi bo’yicha turlicha qarahlar mavjud. Chunki, ayrim ma’lumotlar yuqorida tashkilotlarda ikki xil ko’rinishda berilib qolishlari ham foydalanuvchida shubha uyg’otmay qo’ymaydi. Bu salbiy holatga kelmaslik uchun bizningcha mamlakatda qishloq xo’jaligini ro’yxatga olish orqali amaliy yechimini berish mumkin bo’ladi. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish agrar sohani zamonaviy, shaffof va bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashtirishning asosi bo’lib xizmat qiladi desak ham bo’ladi. Chunki bu tadbir orqali nafaqat mamlakat, balki har bir fermer, dehqon hamda tomorqa yer egasi uchun ham foydali hisoblanadi.


Xalqaro tashkilot FAO 2020 yilgi ro’yxatga olish bo’yicha hisobotida keltirilishicha bugungi kunda ko’pgina davlatlarda qishloq xo’jaligini ro’yxatga olish tadbirlari o’tkazilishi natijasida mamlakat qishloq xo’jaligi samaradorligi oshirilib, aholini oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim baza bo’lib xizmat qilgan. Buni quyidagi asosiy jihatlardan ko'rib chiqish mumkin(1-rasm).

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —

Published: 05.06.2026

Cite this article: Utanov Bunyod Kuvandikovich (2026). Qishloq xo’jaligini ro’yxatga olish orqali agrar soha samaradorligini oshirish masalalari. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319688

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.



1-rasm. Xalqaro darajada qishloq xo’jaligini ro’yxatga olish komponentlari[13]

Yuqoridagi rasm ma’lumotlaridan foydalangan holatda oltita komponentga izoh beradigan bo’lsak, tarmoqda avvalo aniq, shaffof ma'lumotlar bazasini yaratish muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Buning natijasida barcha fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi yerlari to‘g‘risida ma’lumotlar to‘planishi davlatga sohani tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari aniq statistic ma’lumotlarga ega bo’lamiz, masalan xo’jalikda qancha yer maydoni qaysi ekinlar bilan bandligi, qancha chorva mavjudligi, xo’jaliklarda yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining haqiqiy hajmi qanchaligi yoki asosiy fondlarining qanchaligi kabi shular jumlasidandir.

Qishloq xo’jaligini rivojlantirishda davlatning qo‘llab-quvvatlovi hamda davlat tomonidan sohaga ajratilayotgan subsidiyalarning manzilli taqsimlanishi ham juda muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Bunda avvalo adolatli resurs taqsimotini shakllantirish muhim bo’lib, uni ro‘yxatga olish orqali davlat

[13] https://www.fao.org/faostat/ru/#data/WCAD

subsidiyalar (urug‘lik, o‘g‘it, yoqilg‘i), kreditlar va grantlarni haqiqiy ehtiyojdorlarga aniq va adolatli taqsimlashi mumkin. Bundan tashqari xo’jaliklarga maqsadli yordam kanallarini ham shakllantirish vujudga keladi. Masalan, faqat ro‘yxatdan o‘tgan va ma’lum bir ekinni yetishtirishni rejalashtirgan fermergagina subsidiyalar ajratiladi. Bu resurslarning tekinga sarflanishining oldini oladi.

Qishloq xo’jaligini boshqa tarmoqlardan tubdan farq qilib, unda Iqlim o‘zgarishi va tabiiy ofatlarga qarshi kurashish talab etiladi. Agar holat ro’y beradigan bo’lsa, zararni zudlik bilan aniqlash va o’z vaqtida qoplash muhimdir. Agar hosil nobud bo‘lganda yoki qurg‘oqchilik kelganda sug‘urta kompaniyalari yoki davlat zararni qoplash uchun birinchi navbatda ro‘yxatga olingan xo‘jaliklar bilan ishlaydi. Bu holatda ro‘yxatsiz xo‘jaliklar uchun yordam olish juda qiyin bo’ladi. Bundan tashqari monitoring va xavfdan erta ogohlantirish ishlarini ham olib borish imkoniyatlari oshadi. Qaysi hududda qanday ekin ekilganligini bilish, ofat xavfini monitoring qilish va chorva mollarini kasallikdan himoya qilish dasturlarini samarali tashkil etishga yordam berish shular jumlasidandir.

Qishloq xo’jaligi mahsulotlarini tezlik bilan bozorlarga yetkazishda logistikaning o’rni juda muhim hisoblanadi. Buning uchun tarmoqda Bozor infratuzilmasi va logistikaning takomillashishi foydali hisoblanib, ro‘yxatga olish natijasida fermerlar va yirik xaridorlar (supermarketlar, qayta ishlash korxonalari) o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani o‘rnatishga yordam imkoniyatlari oshib ketadi. Xaridorlar qayerga murojaat qilishni, qancha mahsulot kerakligini bilib, o’z faoliyatlarini rejalashtirishlari mumkin. Buning natijasida xaridorlarda ishonchli manbalar shakllanadi. Xaridorlar ro‘yxatdan o‘tgan va davlat tomonidan ma’lum darajada nazorat qilinadigan fermerlardan mahsulot sotib olishga ishonchlilroq bo‘lishadi.

Bugungi kunda texnikaning rivojlanishi hamda ilmiy faoliyatda inqiloblar davom etayotgan bir sharoitda qishloq xo’jaligida imiy-texnik taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlash muhim sanaladi. Bunda yangiliklarni tez tarqatish hamda yangi texnologiyalardan foydalanish samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, davlat yangi urug‘lik navlari, aniq qishloq xo‘jaligi texnikasi yoki suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etishni xohlaganda, birinchi navbatda ro‘yxatga olingan fermerlarga murojaat qilishi oson bo’ladi. Zamon talabi sifatida qishloq xo’jaligida sun'iy intellektdan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Bunda qishloq xo’jaligiga ixtisoslashgan yerning holati, ekinning o‘sishi va sug‘orish darajasi kabi ma’lumotlarni sun'iy intellekt yordamida tahlil qilish uchun dastlabki ma’lumotlar ro‘yxatga olish orqali to‘planadi.

Mamlakatda yetishtirilgan qishloq xo’jaligi mahsulotlarini aholi ehtiyojlarini qondirish hamda ularni eksport qilish imkoniyatlarini yaratish ham zarur bo’ladi. Buning uchun sohada doimo izlanuvchanlikni shakllantirish muhim hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimiz Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo’lish ostonasida

turibdi. Bunda mahalliy qishloq xo’jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar raqobatga bardosh berishlari uchun xalqaro bozorlar mahsulotning kelib chiqishi va sifatiga qat'iy talab qo‘yishini bilgan holatda harakat qilsihlari zarur bo’ladi. Ro‘yxatga olingan qishloq xo’jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi xo‘jaliklari mahsulotlari uchun sertifikatlar olish osonroq bo‘ladi, chunki ularning yerlari va ishlab chiqarish jarayonlari hujjatlashtirilgan. Bundan tashqari xalqaro darajalarga chiqishda milliy brend yaratish ham dolzarb masalalardan biridir. Bizningcha bunda geografik ko‘rsatkichli mahsulotlarni ro‘yxatga olish va uni himoya qilish orqali eksport qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Mamlakatlarda agrar ishlab chiqarish samaradorligi pastligi va resurslardan samarali foydalanmaslik jihatlari ko‘pincha to‘liq, ishonchli va birlashtirilgan qishloq xo‘jaligi ma’lumotlarining yetishmasligi bilan bog‘liq. Mazkur holatni ijobiy yechimi sifatida qishloq xo’jaligini ro’yxatga olish sanaladi. Qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish — bu agrar sohani zamonaviy, shaffof va bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashtirishning asosi hisoblanadi. Bu nafaqat davlat, balki har bir fermer, dehqon hamda xaridorlar uchun ham foydali ekan. Bunda davlat uchun aniq ma'lumotlar asosida siyosat yuritish, resurslarni samarali taqsimlash va xavfsizlikni ta'minlash vositasi sifatida namayon bo’lsa, fermer hamda hehqon uchun esa subsidiyalar, imtiyozlar, manfaatli kreditlar, sug‘urta va barqaror bozorlarga kirish kalitidir. Xaridorlar uchun esa ishonchli, sifatli mahsulotlar demakdir.

Ro‘yxatga olinmagan qishloq xo‘jaligi esa "yashirin" hamda “kuzatilmaydigan” iqtisodiyotning bir qismi bo‘lib, na davlat yordamiga, na keng bozor imkoniyatlariga to‘liq ega bo’lish. Shuning uchun bu ish O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirishdagi eng muhim bosqichlardan biridir.

Umuman olganda, ro'yxatga olish - bu agrar sohani rivojlantirishning "dasturiy ta'minoti" va "operatsion tizimi" dir. Shuning uchun xalqaro FAOning tavsiyalariga ko’ra har besh yilda bir marta etib belgilangan, bizningcha bugungi zamonaviy vositalarning rivojlanishi natijasida oraliq intervalni kamaytirish maqsadga muvofiq bo’lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni.

2. Nusser S.M., House C.C. Sampling, Data Collection, and Estimation in Agricultural Surveys // Handbook of Statistics. – Amsterdam: Elsevier, 2009. – Vol. 29A. – P. 441–468.

3. USDA NASS. 2022 Census of Agriculture: Methodology and Data Quality Measures. – Washington D.C.: USDA, 2024. – 89 p.

IQTISODIY
STATISTIKA KAFEDRASI
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti